Коррупцияга қарши курашган ҳукмдорлардан бири Шумер шаҳар-давлати Лагаш подшоҳи Урунимгина бўлган (таксминан эр. ав. 2319–2311 йилларда бошқарган). Коррупция учун намойишкорона ва жуда қаттиқ жазо чораларига қарамасдан, унга қарши курашиш кутилган натижани бермаган<sup>1</sup>. Жуда борса нисбатан хавфлироқ жиноятнинг олдини олишга эришилган бўлса-да, майда даражадаги ўзлаштириш ва порахўрлик кўринишидаги коррупция оммавий хусусиятга эга бўлган. Коррупциянинг муҳокамасига бағишлиланган биринчи илмий асар “Артха-шастра” деб номланиб, Бхарат (Ҳиндистон) вазирларидан бири Каутиля тахаллуси остида нашрдан чиқарилган (ер. ав. IV аср). Бобил ҳукмдори Хаммурапи қонунларида ҳам порахўрлик учун жавобгарлик масалалари ўрин эгаллаган. Жумладан, адолат — порахўрликка қарши кураш, Сутхўрлик ишлари, виждонсиз амалдорларни ҳибста олиш, гувоҳларни чақириш ва ҳоказо ёзилган<sup>2</sup>.

Коррупцияга қарши курашишга оид манбалардан бири сифатида милоддан аввалги тахминан II асрда шакллана бошлаган Ману қонунларини келтириш

<sup>1</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Урукагина>

<sup>2</sup> Hammurapi qonunlari // [https://uz.wikipedia.org/wiki/Hammurapi\\_qonunlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Hammurapi_qonunlari)



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

мумкин. Ману қонунларида суд ишларини тергов қилиш, одил судлов қоидаларига риоя қилиш, ҳақиқатни англаш, даъво предметини аниқлаш, гувоҳлар, ишнинг вақти, жойи ва ҳолатларини аниқ билиши лозимлиги кўрсатилган. Одил судлов қоидаларига риоя қилган ҳолда ҳақиқатни англаши, даъво предметини, гувоҳни ўзлигини англаши, ишнинг жойи, вақти ва ҳолатини аниқлаши керак<sup>3</sup>.

Шунингдек, Қадимги римнинг XII жадвал қонунларида “corrumper” атамаси “пул эвазига судда ўз кўрсатмасини алмаштирмоқ” ва “судьяни сотиб олмоқ” мазмунида ишлатила бошланган: “Наҳотки сен, қонуннинг суд муҳокамаси жараёнида мазкур иш бўйича пул мукофотини олганлиги фош этилган судья ёки воситачи учун ўлим жазосини назарда тутувчи қарорини шафқатсиз деб ҳисоблайсан?”<sup>4</sup>.

Мутафаккир олимлардан бири бўлган Арастунинг фикрига қўра “ҳар қандай сиёсий тизимдаги энг муҳим нарса қонунлар ва бошқа қоидалар орқали амалдорларнинг пул ишлашлари имконияти бўлмаслиги керак”<sup>5</sup>. У коррупцияга биринчи бўлиб тизимли даражада эътибор қаратган. Давлатчиликка бағишлиланган “Сиёsat” асарида коррупция шунчаки хукуқбузарлик фактлари йифиндиси сифатида эмас, балки давлатга жиддий таъсир кўрсатадиган, ўта оғир вазиятда эса, ўлимга бўлмаса ҳам, унинг дегенерацияси (бузилиши)га олиб келиши мумкин бўлган ҳодиса сифатида таърифланади. Арастунинг фикрича, коррупция ҳокимиятнинг энг юқори тузилмаларига таъсир қиласидиган бундай “бузилган”, “нотўғри” давлатга тириания мисол бўлади<sup>6</sup>.

Тадқиқот ишимиз давомида таҳлиллар асосида Амир Темурнинг “Темур тузуклари” асарида ҳам коррупцияга қарши курашишга доир айrim масалалар мавжуд деган фикрга келиб, асослаш учун қуйидагиларни келтириш мумкин:

<sup>3</sup> Азизов Н.П. Қонунларида одил судловни амалга ошириш масалаларининг ифодаланиши // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № (2024) Б. 8-21.

<sup>4</sup> Таблица IX. З. Авл. Гелий / Законы XII таблиц. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран / под ред. В.А. Томсикова. — М., 1999. — С. 120.

<sup>5</sup> Дацков Г.В. Международно-правовой аспект в борьбе с коррупцией в РФ // Научные труды ИМПЭ им. А.С. Грибоедова. М., 2006. С. 61.

<sup>6</sup> Аристотель. Собрание сочинений: В 4 т. М., 1983. Т. 4. С. 150.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025

“золимдан мазлумнинг ҳақини олдим. Золим етказган моддий ва жисмоний заарларни исботлаганимдан кейин, уни шариатга мувофиқ иккиси ўртасида муҳокама қилдим ва бир гуноҳкорнинг ўрнига бошқасига жабр-зулм етказмадим”<sup>7</sup>.

“ҳокимлар-у сипохдан қай бирининг халқа жабр-зулм етказганини эшитсан, уларга нисбатан дарҳол адолат-у инсоф юзасидан чора кўрдим”<sup>8</sup>.

XVIII асрнинг охирларидан бошлаб Ғарбда жамиятнинг коррупцияга муносабати кескин ўзгарди. Либерал ўзгаришлар, “Давлат ҳокимияти фуқаролар манфаатлари учун фаолият кўрсатади ва амалдорлар қонунларга қатъий риоя этишлари эвазига фуқаролар ҳукуматни таъминлайдилар”, – деган шиор остида рўй берди. Хусусан, АҚШнинг 1787 йилда қабул қилинган Конституциясида пора олиш АҚШ Президентига импичмент эълон қилиш мумкинлиги аниқ кўрсатилган икки жиноятдан бири ҳисобланади. Жамият давлат аппарати фаолияти сифатига янада кўпроқ таъсир қўрсатишни бошлади.

Коррупция ҳокимиятни аста-секин емирувчи ички таҳдиддир. Қадимда Рим, яқин ўтмишда СССР каби империяларнинг парчаланишига ҳам асосий сабаб, шак-шубҳасиз, коррупция бўлган<sup>9</sup>. Сиёсий партиялар ва давлат бошқарувининг кучайтирилиши, сиёсий элита ва йирик бизнес вакилларининг тил бириктириш ҳолатларини вужудга келтира бошлади. Шунга қарамай XIX–XX асрларда ривожланган давлатларда коррупция даражаси бошқа давлатларга қараганда пасайди<sup>10</sup>.

Тарихдан маълумки Пётр I фискал ходимларнинг фаолияти устидан назоратни таъминлаш учун ҳукуқни муҳофаза қилиш органларини яратди. Ярославл

<sup>7</sup> Темур тузуклари / Таҳрир ҳайъати: Б. Абдуҳалимов ва бошқ. – Т., 2012. – 76-б.

<sup>8</sup> Ўша манба. – 78-б.

<sup>9</sup> Федор Раззаков. Коррупция в политбюро. – М., 2009 // <https://www.litres.ru/book/fedor-razzakov/korrupciya-v-politburo-delo-krasnogo-uzbeko-249822/chitat-onlayn/>

<sup>10</sup> Bardhan P. Corruption and development: a review of issues. — In: Political corruption: concepts and contexts / Ed. Heidenheimer A. J., Johnston M. 3rd ed. New Brunswick, NJ: Transaction, 2002. —P. 331.; Glaeser E. L., Goldin C. Corruption and reform: an introduction // NBER Working Paper 10775. 2004.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

провинс-фискали Попсов ўз лавозимида бўлганида, қуи даражадаги фискаллардан ва бошқа шахслардан пора олган. Ушбу жиноятларни содир этгани учун у ўлимга ҳукм қилинди ва қатл этилди<sup>11</sup>.

Екатерина II даврида порахўрлик учун жазо чоралари Пётр I давридагидек қаттиқ эмас эди. Мансаб ваколатини ғаразли суистеъмол қилганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисидаги қонун ҳужжатларига эмас, балки жиноят содир этганлик учун жазо муқаррарлиги принципини таъминлашга қўпроқ эътибор қаратилди.

1917 йил сентябрь ойида Муваққат ҳукумат томонидан ҳукуқни муҳофаза қилиш тизимини ислоҳ қилиш жараёнида тасдиқланган “Москва шаҳар милицияси милиционерлари учун йўриқнома”да императив кўрсатмалар тарзида эмас, балки ахлоқий баҳо шаклида шундай сўзлар келтирилган: милиционер фуқаролар учун ҳушёрлик, ҳалоллик, ростгўйлик, фидойилик, мардлик ва жасорат намунаси бўлиши керак” (2-банд); милиция ходимининг расмий мавқеи бошқа фуқароларга нисбатан унга ҳеч қандай устунлик бермайди, масалан: навбатсиз озиқ-овқат олиш, томошаларда бепул қатнашиш ва ҳоказо (9-банд)<sup>12</sup>.

1917 йил октябрь ойида большевиклар томонидан амалга оширилган Россия давлатининг сиёсий тизими ва бошқарув шаклидаги ўзгаришлар коррупция, порахўрлик ва мансабни суистеъмол қилишининг бошқа шакллари ва уларнинг мазмунини ўзгартирмади. Ҳокимиятга эришган меҳнаткаш халқ вакиллари коррупцияни давом эттирилдилар.

Халқ Комиссарлари Кенгашининг 1918 йил 8 майдаги “Порахўрлик тўғрисида”ги Фармони Совет Россиясида коррупция учун жиноий жавобгарликни назарда тутувчи биринчи акт бўлди (камида беш йил муддатга озодликдан маҳрум қилиш, у шу муддатга мажбурий меҳнат билан бирлаштирилди). Қизиги шунда-ки, мазкур Фармонда пора олишга ёки беришга интилиш содир этилган жиноятга тенглаштирилди.

Россия Федерацияси худудида ишлаб чиқилиши 1918 йилда бошланган Жиноят кодекси 1922 йил 1 июндан кучга кирди. Янги Жиноят кодекси

<sup>11</sup> Кабанов П.А. Коррупция и взяточничество в России. Нижнекамск. 1995. С.21.

<sup>12</sup> Из опыта работы милиции. М., ГИЦ МВД СССР, 1991. Спец, выпуск № 1. С.5,6.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

коммунистик тузум ёки ўтиш даври кодекси бўлиши керак эди. Унда, кейинги 1926 ва 1960 йилги Жиноят Кодексларидағи каби жазо чораларига алоҳида эътибор қаратилган. Ташкилий воситалар ва интизомий жазо чоралари орқали мансаб ваколатини суистеъмол қилишнинг олдини олиш имкониятларини етарлича баҳоламаслик жиддий жазо сифатида (айрим қилмишлар учун, жумладан, ўлим жазосигача) ҳам кўрилиши мумкин эди.

Машхур олим А. Кирпичников коррупция ҳодисасининг ривожланишини ўрганар экан, ўзининг “Россиядаги пора ва коррупция” китобида Сталиндан кейинги даврда коррупциянинг кенг тарқалишини яшириш тобора қийинлашди. Ижтимоий муносабатларнинг маълум даражада музлаши коррупциянинг кенг тарқалганлигини ва хуқуқни муҳофаза қилувчи идораларнинг коррупция домига тушиб қолганлигини кўрсатди.

Расмий равишда хуқуқни муҳофаза қилиш органлари деб аталадиган жазо идоралари коррупцияга қарши қурашмаса бу ерда яширин иқтисодиёт мавжуд бўлиши мумкин ва у доимо мамлакат иқтисодий салоҳиятининг муҳим қисмини ташкил қиласди. Бу, биринчи навбатда, ички ишлар органларига ва унинг бўлинмаларига (Иттифоқ даврида социалистик мулкни ўғирлашга қарши қураш бошқармаси ва бўлимлари (ОБХСС – Муаллиф) иқтисодий жиноятларга қарши қурашиш учун мўлжалланган.

Совет Иттифоқи Коммунистик партияси раҳбари Н. Хрушчев коррупцияни биргина ҳал қилувчи зарба билан тугатишга қарор қиласди. 1962 йил июль ойида пора олиш учун ўлим жазоси жорий этилди. Ўлим жазоси коррупциянинг фош этилишига салбий таъсир кўрсатди: одамлар жиноятчини фош қилиб, қотиллик гуноҳини ўз зиммаларига олишни истамас, табиийки, коррупциянерлар ҳам жинояти ҳақида гапиришдан қўрқишарди.

СССР Олий Кенгашининг 1991 йил 24 июлдаги “СССР ва республикалар жиноят қонунчилиги асосларини амалга ошириш тўғрисида”ги Фармони билан 1991 йил 24 июлдан бошлаб СССР худудида пора олганлик учун ўлим жазоси бекор қилинди<sup>13</sup>. Инқилобдан олдинги Россия жиноий қонунчилиги ва

<sup>13</sup> Ведомости Съезда народных депутатов СССР и Верховного Совета СССР. 1991. №27. С. 1362.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

Совет коррупцияга қарши қонунчилиги тажрибаси ижобий күринади ва замонавий шароитда қабул қилиниши мумкин.

ХХ асрнинг 90 йилларида МДҲ мамлакатлари бошдан кечирган ўтиш даврида партиявий назорат тизимининг емирилиши зарур хукуқий база ва хукуқий маданият билан қўллаб-қувватланмаган янги иқтисодий тизимга тез ўтиш содир бўлди, бу эса коррупциянинг гуллаб-яшнаши учун қулай шароит яратди. Ҳамма нарсага рухсат берилганлик, ҳамма нарсани сотиб олиш мумкин бўлган “ёввойи” бозор ҳодисаси давлат лавозимлари ва уларга хос бўлган ваколатларнинг ҳам олди-сотди предметига айланишига олиб келди<sup>14</sup>. Коррупция давлат амалдорлари билан ўзаро муносабатларнинг самарали усулларидан бири бўлиб чиқди.

Кўриб чиқилаётган ҳодисанинг ривожланиш тарихидан келиб чиқиб, ҳозирги босқичда коррупция нимани англатишни, қандай хусусиятларга эга эканлигини кўриб чиқайлик.

Илмий-назарий жихатдан коррупцияга қарши курашиш масаласи нафакат хукуқий фанларнинг, айни чоғда бошқа ижтимоий-гуманитар фанларнинг ҳам муҳим мавзуларидан бири ҳисобланади. Шу сабабли, иқтисодиёт, сиёsatшунослик, фалсафа, социология, педагогика, психология каби фанлар доирасида ҳам коррупцияга қарши курашиш борасида қатор тадқиқотлар амалга оширилган.

БМТ томонидан 1978 йил 17 декабрда қабул қилинган “Хукуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларининг одоб-ахлоқ кодекси”га мувофиқ, коррупция тушунчasi миллий қонунчилик билан белгиланиши ва ўз вазифаларини бажаришда ёки сабабларга кўра ҳар қандай хатти-ҳаракатнинг содир этилиши ёки ҳаракатсизлигини қамраб олиши керак. “Коррупция ҳаракати” ибораси пора беришга уринишни ҳам ўз ичига олади.

БМТнинг коррупцияга қарши халқаро кураш бўйича маълумотнома ҳужжатида коррупция “шахсий манфаатлар учун давлат ҳокимиютини суиистеъмол қилиш” деб таърифланади. Суиистеъмолларга қўйидагилар киради: пораҳўрлик, қариндош-уруғчилик (қариндошлари ёки “ички шахслар”

<sup>14</sup> Кабанов П.А. Политическая коррупция в России: Криминологическая характеристика и меры сдерживания. Нижнекамск, 1998. С. 27.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025

ҳомийлигида даромадли ёки фойдали лавозимларни эгаллаш), давлат маблағларини шахсий фойдаланиш учун ўзлаштириш<sup>15</sup>.

Коррупциявий ҳуқуқбузарликларга қарши курашишда БМТ Котибиятининг коррупцияга қарши қўлланмасида ҳам худди шундай талқин қилинган. Ушбу хужжатга мувофиқ коррупцияга қўйидагилар киради:

мансадор шахслар томонидан давлат мулкини ўғирлаш ва ўзлаштириш; мансабдорлик мавқенини суиистеъмол қилиш, мансаб мақомидан норасмий фойдаланиш натижасида асоссиз шахсий манфаат (имтиёзлар, устунликлар) олиш;

жамоат бурчи ва шахсий манфаатлар ўртасидаги манфаатлар тўқнашуви.

Худди шундай талқин “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги (МДҲ) намунавий қонунида ҳам берилган: “Коррупция (коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар) деганда давлат мансабдор шахслари, шунингдек, унга тенглаштирилган шахслар томонидан шахсан ёки воситачилар орқали мулкий манфаатлар ва имтиёзларни қабул қилиш тушунилади”<sup>16</sup>.

Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонунининг З-моддасида илк маротаба қўйидаги тушунчага таъриф берилди: “Коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик — бу коррупция аломатларига эга бўлган, содир этилганлиги учун қонун хужжатларида жавобгарлик назарда тутилган қилмиш”<sup>17</sup> мазмунидаги оид талқин этилганлигини қайд этиш мумкин.

Халқаро характердаги расмий хужжатлар коррупция тушунчасини унинг айрим турлари билан боғлайди ва шу билан ушбу жиноятни бошқа жиноятлар билан аниқлайди, масалан: БМТнинг эллик биринчи сессиясида (1996) қабул қилинган Давлат мансабдор шахсларининг халқаро хулқ-атвор кодексида коррупция тушунчаси мавжуд эмас. Бироқ, унда мансабдор шахсларга

<sup>15</sup> Кабанов П.А. Борьба со взяточничеством и иными формами коррупции в условиях реформирования государственного аппарата и перехода к рынку: Автореф. дисс. ... канд. юр. наук. Н. Новгород, 1994. С. 14-15.

<sup>16</sup> Принят на 13-м Пленарном заседании Межпарламентской ассамблеи государств-участников СНГ (Постановление от 3 апреля 1999 г. № 13-4) // Информационный бюллеетень. Межпарламентская ассамблея государств-участников СНГ. 1999. №21. С. 70-8.

<sup>17</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 2-модда.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

нисбатан қўйилган чекловларни инобатга олган ҳолда, хулоса қилишимиз мумкин-ки, уни ишлаб чиқувчилар коррупцияни ҳар қандай шахслар ёки шахслар гурухига қонунга хилоф равишида имтиёзлар бериш деб ҳисоблайдилар; мансабдор шахслар томонидан ўз мансаб мавқеидан шахсий нафақа ёки оиласи учун шахсий ёки моддий манфаат олиш мақсадида ноқонуний фойдаланиш; ўз хизмат вазифаларини бажариш билан боғлиқ бўлмаган фаолиятни амалга ошириш мақсадида олинган давлат маблағлари, мол-мулк, хизматлар ёки маълумотлар.

Коррупцияга давлат мансабдор шахси ёки давлат вазифаларини бажарувчи шахс томонидан совға тарзида ҳар қандай пул қийматидаги нарсаларни ёки бошқа манфаатларни сўраш ёки олиш билан бир қаторда ўзи ёки бошқа шахс ёки юридик шахс учун хизматлар, ваъдалар ёки имтиёзлар ҳам киради<sup>18</sup>.

Коррупция атамаси ҳақида юқорида берилган тушунчалар таҳлилидан келиб чиқиб, унинг белгиларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

коррупцияни содир этиши мумкин бўлган шахслар доирасини аниқлаш;  
қайси соҳада содир этилишини аниқлаш;

бундай фаолиятнинг мақсадларини аниқлаш (*бойиши, моддий хусусиятдаги ҳар қандай имтиёзларни олиши*);

коррупцияни содир этишдан манфаатдор бўлган шахслар доирасини аниқлаш (*mansabдор шахс ва унга ноқонуний равишида ҳақ тўлаётган шахслар*).

БМТнинг Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши курашиш тўғрисидаги конвенциясида коррупция қуйидагича таърифланади: “Мансабдор шахсга ўз хизмат вазифаларини бажаришда бирон-бир ҳаракат ёки ҳаракатсизликни амалга ошириш учун мансабдор шахсга ёки бошқа шахс ёки юридик шахсга ҳар қандай номақбул имтиёз ваъда қилиш, таклиф қилиш ёки унга шахсан ёки воситачи орқали бериш. Жамоатчилик шахсининг шахсан ёки воситачи орқали ўз хизмат вазифаларини бажаришда ҳар қандай ҳаракат ёки ҳаракатсизликни амалга ошириши учун шахснинг ўзи учун бирон-бир номақбул манфаат сўраши ёки қабул қилиши”.

<sup>18</sup> Sheribboevich, Y. K. (2024). BASICS OF A QUICK EXPERIMENT CONDUCTING OPERATIONAL SEARCH EVENTS. *International Journal Of Law And Criminology*, 4(07), 30-37.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида коррупция ўта хавфли ҳодиса сифатида келтирилади. Ва бу тасодиф эмас. Бошқа мамлакатлар қатори Ўзбекистонда ҳам амалдорлар орасида узоқ вақтдан бери мавжуд бўлган пора ва порахўрлик анъаналари кенг тарқалган эди. Бироқ, бугунги кунда коррупциянинг тарқалиши билан боғлиқ вазият сифат жиҳатидан янги даражага кўтарилид. Коррупция жамиятнинг барча жабҳаларига кириб борди ва давлат институтларининг фаолиятига ҳақиқатан ҳам ҳалокатли таъсир кўрсатмоқда.

Юқорида келтирилган коррупция атамасининг этимологик маъноси, олимларнинг бу борадаги қарашлари ҳамда норматив-хуқуқий хужжатлардаги тушунчалар таҳлилидан келиб чиқиб, коррупцияга таъриф берамиз.

*Коррупция* – бу мансабдор шахслар томонидан ваколати ва хизмат мавқеидан шахс, жамият ва давлатнинг қонуний манфаатларига зид бўлган мақсадларда фойдаланиши натижасида юзага келадиган салбий ижтимоий ҳодисадир.

Мансабдор шахслар томонидан содир этилган қилмиш қўйидаги ҳолларда коррупция деб топилади:

хизмат манфаатларига дахл қилувчи ноқонуний хусусиятга эга бўлса;  
хизмат мавқеидан ноқонуний фаолиятни амалга ошириш учун фойдаланади;  
шахсий ёки корпоратив ғаразли манфаатларни кўзда тутади;  
ўзининг моддий ёки номоддий манфаатини жиноий йўл билан олади;  
хизмат ваколати ва мақоми бузилади.

Юқоридагиларнинг барчаси мансаб ваколатларини суиистеъмол қилишда намоён бўллади. Мансабдор шахснинг мансаб ваколатларини суиистеъмол қилиш деганда, ўзи эгаллаб турган мансаб лавозими ваколатларига кирувчи хуқуқ ва мажбуриятларни амалга ошириш билан боғлиқ, бироқ ўз мазмунига кўра эгаллаб турган лавозимининг мақсад ва вазифаларига, шунингдек, у фаолият юритаётган тегишли орган фаолиятининг мақсад ва вазифаларига зид келувчи харакатлари тушунилади.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

## O'QITUVCHILARDA KASBIY SO'NISH JARAYONINI OLDINI OLISHNING ILMIY-USLUBIY VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Botirova Dilafro'z Bozorovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi  
botirovadlafruz@gmail.com

Tel: 91.134.59.73

### **Annotasiya:**

Mazkur maqolada pedagoglarning kasblariga nisbatan faolligi va qiziqishini so'nishi mexanizmlariga e'tibor qaratilgan, shu bilan birga mazkur xolatdagi shaxslarga qanday yordam berish yo'llariga to'xtalib o'tilgan.

**Tayancg so'zlar:** kasbiy so'nish, xissiy so'nish, kasbiy stress, kasbiy o'zlik, kasbiy "men" lik, kasbiy malaka, kasbiy hamkorlik, kasbiy layoqat.

So'nggi yillarda so'nish sindromi, ayniqsa, ta'lim rahbarlari va o'qituvchilarining e'tiborini tortmoqda. Bu mutaxassislarning, ayniqsa, "yordamchi" kasblarda, shu jumladan o'qituvchilik sohasida kasbiy so'nish sezilmasdan boshlanishi va dastlabki bosqichlarda tashkilot uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmasligi bilan izohlanadi. Biroq, uzoq muddatda bu jiddiy oqibatlarga olib kelishi va muassasa uchun juda qimmatga tushishi mumkin. [1]

Ikkita asosiy yo'nalishda o'qituvchilarning kasbiy pasayishiga yo'l qo'ymaslik tavsiya etiladi:

**O'qituvchilar uchun tashkiliy ish sharoitlarini optimallashtirish:** Bu qulay va qo'llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratishni o'z ichiga oladi, jumladan: [1]

- Qulay va funksional ish joyini ta'minlash.
- Aniq ish tavsiflari va majburiyatlarini belgilang.
- Mukofot va jazolashning konstruktiv tizimini joriy etish.
- Ishchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va manfaatlarini himoya qilish.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

- Mehnatni muhofaza qilishning samarali tizimini ishlab chiqish.
- O'qituvchilar uchun rasmiy va norasmiy xulq-atvor standartlarini shakllantirish.
- Muassasada yuqori tashkiliy madaniyatni shakllantirish va uni rivojlantirish.
- Professional va ma'muriy yordam ko'rsatish.

**O'qituvchilarning shaxsiy resurslarini yangilash:** Bu motivatsiya va samaradorlikni saqlash uchun muhim, jumladan: [2]

- Malaka oshirish bo'yicha treninglar va seminarlar o'tkazish.
- Ta'lim resurslaridan foydalanish va o'z-o'zini ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash.
- Shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.
- O'qitish madaniyati va shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'maklashish.
- Doimiy takomillashtirish uchun muntazam baholash va fikr-mulohazalarni o'tkazish.

O'qituvchilarning kasbiy so'nishini oldini olishning birinchi yo'nalishi tashkiliy sharoitlarni optimallashtirish va o'qituvchining shaxsiy resurslarini yangilashni o'z ichiga oladi. [3]

Ish joyini tashkiliy takomillashtirish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Ish joyini tashkil etish: sanitariya va estetik talablarga javob beradigan makon yaratish. Yorug', havodor va yaxshi jihozlangan joylarda ishlaydigan o'qituvchilarning kuyish ehtimoli kamroq.
2. Ish ta'riflarini aniqlash: o'qituvchilar uchun ish tavsiflari va ko'rsatmalarda aniqlik kriting.
3. Mukofot va jazolar tizimi: barcha jamoa a'zolari uchun tushunarli va shaffof bo'lgan konstruktiv vaadolatlilik mukofot va jazo tizimini yaratish.
4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan kadrlar siyosati, martaba o'sishi va boshqalar.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

5. Mehnatni muhofaza qilish tizimi: o'qituvchilarning ish muhitida xavfsizlik va qulaylikni ta'minlaydigan mehnatni muhofaza qilish tizimini yaratish.
6. Xulq-atvor standartlari: o'qituvchilar uchun rasmiy va norasmiy xattiharakatlar standartlarini o'rnatish.
7. Tashkiliy madaniyat: hamkorlik va samarali muloqotga yordam beruvchi kuchli tashkiliy madaniyatni rivojlantirish.
8. Yordam va boshqaruv: muassasa ma'muriyati tomonidan professional va ma'muriy yordam ko'rsatish.

O'qituvchilarning kasbiy so'nishining oldini olishning ikkinchi yo'nalishi ularning shaxsiy resurslarini faollashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq. Buni quyidagicha amalga oshirilishi mumkin: [4]

## **1. Ta'lif sohasi:**

- O'qituvchilarni so'nishining sabablari va alomatlari haqida ma'lumot berish: Bu o'qituvchilarga ishning haddan tashqari yuklanishi, ishdan qoniqmaslik, jamoadagi nizolar va boshqalar kabi charchashga olib keladigan omillar haqida ma'lumot beradigan seminarlar, treninglar va ma'ruzalar o'tkazishni o'z ichiga oladi.
- O'qituvchilarni o'z-o'ziga yordam berish usullari bilan tanishtirish: Ushbu bo'lim o'qituvchilarga hissiy stressni mustaqil boshqarish va so'nishning oldini olish vositalar va strategiyalarni taqdim etadi.[5] Bunga dam olish usullari, vaqtini samarali boshqarish usullari, meditatsiya amaliyotlari va boshqalar kiradi.

## **➤ O'qituvchining e'tirof etish, o'zini o'zi tasdiqlash va o'zini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan o'qituvchilik kasbining ahamiyatini oshirish:**

- Ta'limganda foydalanish imkoniyatini ta'minlash: Maktab ma'muriyati turli o'quv dasturlari va seminarlarda ishtirok etish orqali o'qituvchilarga doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.
- Uzluksiz baholash: o'qituvchilarni ta'kidlamaydigan, balki ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish va o'sishini rag'batlantiradigan baholash jarayonini yaratish.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

- Kasbiy tadbirdarda ishtirok etish: O'qituvchilarga pedagogik mashg'ulotlar, uslubiy seminarlar, marafon va ishbilarmonlik o'yinlarida qatnashish imkoniyatini ta'minlash, bu tajriba almashish va bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi.
  - O'qituvchilik tajribasini to'plash: o'qituvchilarni o'qitish tajribasini to'plashga va uni keyinchalik umumlashtirishga rag'batlantirish, bu esa kasbiy o'sish va rivojlanishga yordam beradi.
  - Natijalar va ishlanmalarni nashr etish: o'qituvchilarga o'zlarining pedagogik kashfiyotlari va ishlanmalarini nashr etish imkoniyatini yaratish, bu ularning ta'lif hamjamiyatida e'tirof etilishiga yordam beradi va ularni yanada ijodiy o'sishga undaydi.
- **Uchinchi yo'naliш o'qituvchilarni o'z-o'zini tartibga solish usullarini o'rgatish va guruhda ishlash orqali stress va so'nishning oldini olishni o'z ichiga oladi.** V.V. Boyko tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillardan qo'llanma sifatida foydalananish mumkin:
- "Umuman olganda, hammasi yaxshi, qilingan hamma narsa yaxshilik uchun qilingan" shiorini qabul qilish: O'qituvchilar ishdagi noqulay vaziyatlarni vaqtinchalik deb qabul qilishni o'rganishlari va ularni yaxshi tomonga o'zgartirishga harakat qilishlari kerak.
  - Energiyani ijobiy o'zgarishlarga yo'naltirish: O'qituvchilar o'z noroziliklarini tuhmat va haqoratga yo'naltirishdan qochishlari, aksincha, ijobiy o'zgarishlarga yordam beradigan omillarga e'tibor berishlari kerak.
  - Yutuqlarga ko'proq e'tibor berish va o'zini maqtash: O'qituvchilar uchun ularning yutuqlarini ta'kidlash va ulardan zavqlanish, shuningdek, o'z ishida ijtimoiy va insoniy ma'noni ko'rish muhimdir.
  - Ilhom manbalarini izlash: O'qituvchilar o'z ishlarida ilhom manbalarini topa bilishlari, xatolarni tuzatishdan ko'ra maqsad va ularga erishish vositalarini tushunishga vaqt sarflashlari kerak.
  - Keraksiz bezovta qiluvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni tashkil etish: O'qituvchilar o'z ishini boshqalarning keraksiz va bezovta qiluvchi qo'ng'iroqlarini bartaraf etadigan tarzda tashkil etishlari kerak.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

– Samarali muloqot va nizolarni boshqarish: O'qituvchilar hamkorlarning so'rovlari, maslahatlari va talablarini qabul qila olishlari, muammolar va nizolarni hal qilishda sovuqqon va xotirjam bo'lishlari kerak.

– Ish va hayotni ajratish: O'qituvchilar ishda shaxsiy hayat muammolarini ko'tarishdan yoki ularni hamkasblari bilan muhokama qilishdan qochishlari kerak.

– Ijobiy muloqotni o'rnatish: O'qituvchilar uchun yoqimli, ochiq va samimi odamlar bilan doimiy va tez-tez muloqot qilish muhimdir.

– Hissiy stressni kamaytirish usullarini qo'llash: O'qituvchilar ish muhitida hissiy stressni kamaytirish uchun turli usullardan foydalanishlari kerak [27].

O'qituvchilar o'rtasida so'nish sindromining oldini olish uchun turli xil profilaktika choralari va diagnostika usullari qo'llaniladi. Bu usullarga quyidagilar kiradi: [1]

1. **Kuzatish usuli:** O'qituvchilarning psixologik barqarorligini baholash va ularning kasbiy faoliyatiga xos bo'lgan omillarni, masalan, individual psixologik va ijtimoiy-psixologik jihatlarni aniqlash uchun foydalaniladi.

2. **Suhbat usuli:** O'qituvchining hissiy holatini, uning ish va hamkasblariga munosabatini diagnostika qilish, shuningdek, individual so'nish omillarini aniqlash uchun ishlatiladi.

3. **Ekspert baholash usuli:** Hujjatlarni tahlil qilish va kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik va tashkiliy jihatlarining ob'ektiv holatini o'rganishga asoslangan.

4. **Psixodiagnostika usullari:** Kasbiy so'nish darajasini aniqlash va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan.

Diagnostik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ushbu jarayonga individual omillarning ta'sirini hisobga olgan holda o'qituvchilar o'rtasida kasbiy so'nishning oldini olish va tuzatishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish rejalashtirilgan. [5]

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki ushbu mavzu doirasida nazariy va empirik natijalar asosida pedagoglarda kasbiy so'nish jarayoning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari xamda omillarini tahlil qilish va kasbiy so'nish profilaktikasi bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, hamda bugungi kun uchun pedagoglarning kasblariga nisbatan faolligi va qiziqishini so'nishi mexanizmlariga e'tibor qaratishimiz muhim axamiyat kasb etadi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**

**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

---

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Botirova D.B. Pedagoglarda kasbiy so'nish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari " psixol.f.f.d.,disser. T.: 2024 y.
2. Botirova D.B. Pedagogik faoliyatda kasbiy sunish jarayonining ijtimoiy psixologik asoslari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2023.
3. Аболин Л. М. Психологические механизмы эмоциональной устойчивости человека. Казань: КГУ., 1987
4. Васильченко М.В., Желдоченко Л.Д. Феномен профессионального стресса в педагогической деятельности //Интернет-журнал. «Мир науки», 2017.
5. Botirova D.B. Scientific and theoretigal basics of the process of professional characteristics of the process of professional withdrawal in educators. Вестник интегративной психологии. – Ярославл, 2023. №30.



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

## **NONLINEAR OPTICAL (NLO) MATERIALS: BIS(2-METHYL-4-NITROANILINIUM) HEXACHLORO-TIN(IV) MONOHYDRATE.SINGLE CRYSTAL X-RAY STRUCTURE ANALYSIS**

Samandarov E. Sh<sup>1</sup>.,

Yakubov.Y. Y<sup>2</sup>.,

C.Balakrishnan<sup>3</sup>.

<sup>1</sup>Khorezm Mamun branch of Uzbekistan Academy of Sciences, Markaz-1, Khiva 220900, Uzbekistan. <sup>2</sup>Institute of General and Inorganic Chemistry of Uzbekistan Academy of Sciences, 100170, Mirzo Ulug'bek str., 77a.

<sup>3</sup>Department of Chemistry, Erode Sengunthar Engineering College, Erode 638057, Tamil Nadu, India

### **Abstrakt.**

2-Methyl-4-nitroaniline (2m4na) and Tin(IV) chloride formed a nonlinear optical material. The molecule obtained nonlinear optical material (NLO)=(2m4na)<sub>2</sub>SnCl<sub>6</sub>·H<sub>2</sub>O-bis(2-Methyl-4-nitroanilinium) hexachloro-Tin (IV) monohydrate. In all the crystal structures presented, cations and anions are arranged alternatively to form chain and ring hydrogen-bonding patterns consisting of weak unconventional N–H $\cdots$ Cl hydrogen bonds. The compound was first analyzed using single-crystal X-ray diffraction to determine its crystal structure. Subsequently, FTIR (Fourier-transform infrared spectroscopy) and UV-visible absorption spectroscopy studies were conducted to provide insights into the compound's chemical composition and electronic transitions.

### **Introduction**

The design and synthesis of new organic-inorganic hybrid compounds have become significantly important in recent years due to the potential to merge the distinct properties of organic and inorganic materials. The self-assembly processes of these hybrid compounds in the solid-state are facilitated by a diverse array of interactions, including hydrogen bonding networks,  $\pi$ - $\pi$  interactions, and van der Waals forces. These interactions play a crucial role in governing the supramolecular organization and properties of the resulting materials. The hydrogen bonding



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

network contributes to the structural stability and organization of the hybrid compounds.  $\pi$ - $\pi$  interactions, which involve the stacking of aromatic systems, can influence the electronic properties and structural arrangement of the materials. Additionally, van der Waals forces contribute to the overall cohesion and packing efficiency of the hybrid structures.

**Keywords:** 2-Methyl-4-nitroaniline ; Single crystal; Hydrogen bond; Hirshfeld surface analysis; Crystal Voids.

## Results and discussion.

### 1.Single crystal X-ray structure analysis.

The intermolecular hydrogen bonds and hydrogen bonds in the molecule are between the N1-H atom in 2-methyl 4-nitro aniline and the Cl2 and Cl3 atoms in SnCl<sub>4</sub>. The intermolecular bond is N1-H $\cdots$ Cl3 and N1-H $\cdots$ Cl2 occurs between Cl2 and between N1-H $\cdots$ H-O hydrogen bonds. The intermolecular bond is N1-H $\cdots$ Cl2 distance is 2.579 Å and distance of N1-H $\cdots$ Cl2 is 2.883 Å. The valence angle of Cl-Sn-Cl in the SnCl<sub>6</sub><sup>2+</sup> molecule is 92.50 Å.

Information of plane spacing for monoclinic structure crystal systems.

$$\frac{1}{d^2} = \frac{1}{\sin^2 \beta} \cdot \left( \frac{h^2}{a^2} + \frac{k^2 \sin^2 \beta}{b^2} + \frac{l^2}{c^2} - \frac{2hl \cos \beta}{ac} \right)$$

Additionally, corrections for Lorentz and polarization effects were made to ensure the accuracy of the intensity measurements of the reflections. Monoclinic , Axial lengths and angles -Three unequal axes, one pair not at right angles  $a \neq b \neq c$ ,  $\alpha \neq \gamma = 90 \neq \beta$ .

The X-ray diffraction data for the crystal structure of 2-Methyl-4-nitrobenzenaminium hexachloro-stannane monohydrate was collected using a KUMA Diffraction KM-4 four-circle single-crystal diffractometer.(Fig-1).




International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025



**Fig-1.** (a) ORTEP drawing of the intermolecular H-bonds and (b) Nonlinear optical (NLO) materials.

bis(2-Methyl-4-nitroanilinium) hexachloro-Tin(IV) monohydrate molecule. Thermal ellipsoids are drawn with the 50% probability level. This instrument was equipped with a CCD detector and utilized graphite-monochromatized Mo K $\alpha$  radiation with a wavelength of 0.71073 Å. The raw data obtained from the diffraction experiment were processed using the CrysAlis Data Reduction Program, specifically version . During the data reduction process, an absorption correction was applied to account for any absorption effects present in the crystal sample. The crystal structures of 2-Methyl-4-nitrobenzenaminium hexachloro-stannane monohydrate were initially solved using direct methods. Subsequently, the structures were refined utilizing the full-matrix least-squares method with the SHELXL-97 software. This refinement process allowed for a detailed and precise



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025

analysis of the crystal structure, ensuring that the final model accurately represented the arrangement of atoms within the compound.

The crystallographic data for 2-methyl-4-nitroanilinium chloride (1) can be accessed through CCDC-875783 and for bis(2-amino-4-nitroanilinium) hexachloridostannate(IV) monohydrate (2) through CCDC-905995. Supplementary data related to the crystallography in this study can be acquired at no cost from [www.ccdc.cam.ac.uk/conts/retrieving.html](http://www.ccdc.cam.ac.uk/conts/retrieving.html) or by contacting the Cambridge Crystallographic Data Centre at 12 Union Road, Cambridge CB21EZ, UK; fax: +44 1223 336033; e-mail: deposit@ccdc.cam.uk.

Crystallographic data and details of the structure refinement are given in Table 1.

**Table 1. Crystallographic data and details of the refinement of the bis(2-Methyl-4-nitroanilinium) hexachloro-tin(IV) monohydrate. structure.**

Name	bis(2-Methyl-4-nitroanilinium) hexachloro-tin(IV) monohydrate.
Empirical formula	$2(\text{C}_7\text{H}_9\text{N}_2\text{O}_2^+)\text{Cl}_6\text{Sn}^{2+}\text{H}_2\text{O}$
Formula weight	655.71
Temperature/K	295(2)
Crystal system	Monoclinic
Space group	C2/c
a/Å	12.5392(3)
b/Å	9.2956(2)
c/Å	20.6018(4)
$\alpha/^\circ$	90
$\beta/^\circ$	99.435(2)
$\gamma/^\circ$	90



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025

V/ $\text{\AA}^3$

**2368.85**

<b>Z</b>	<b>1</b>
<b><math>\rho_{\text{calc}}</math>, g/cm<sup>3</sup></b>	<b>1.342</b>
<b><math>\mu/\text{mm}^{-1}</math></b>	<b>0.895</b>
<b>F(000)</b>	<b>848.0</b>
<b>Crystal size/mm<sup>3</sup></b>	<b>0.16 × 0.14 × 0.12</b>
<b>Radiation</b>	<b>Cu K<math>\alpha</math> (<math>\lambda = 1.54184</math>)</b>
<b>2<math>\Theta</math> range for data collection/°</b>	<b>8.13 to 152.25</b>
<b>Index ranges</b>	<b>100 ≤ h ≤ -100, 100 ≤ k ≤ -100, 100 ≤ l ≤ -100</b>
<b>Reflections collected</b>	<b>13000</b>
<b>Independent reflections</b>	<b>2045 [<math>R_{\text{int}} = 0.0297</math>, <math>R_{\text{sigma}} = 0.0159</math>]</b>
<b>Data/restraints/parameters</b>	<b>2045/0/180</b>
<b>Goodness-of-fit on F<sup>2</sup></b>	<b>1.055</b>
<b>Final R indexes [<math>I &gt;= 2\sigma(I)</math>]</b>	<b><math>R_1 = 0.0343</math>, <math>wR_2 = 0.0940</math></b>
<b>Final R indexes [all data]</b>	<b><math>R_1 = 0.0372</math>, <math>wR_2 = 0.0969</math></b>
<b>Largest diff. peak/hole / e <math>\text{\AA}^{-3}</math></b>	<b>0.20/-0.15</b>
<b>R-Factor(%)</b>	<b>2.06</b>
<b>Reduced Cell Parameters</b>	<b>a: 7.804 b: 7.804 c: 20.602</b>

## REFERENCES

- [1]. (10) Azumi, R.; Honda, K.; Goto, M.; Akimoto, J.; Oosawa, Y.; Tachibana, H.; Tanaka, M.; Matsumoto, M. Acta Crystallogr 1996, C52, 588.
- [2]. P. Gurumoorthy, D. Mahendiran, D. Prabhu, C. Arulvasu, A.K. Rahiman. RSC Adv., 4, 42855 (2014).
- [3]. H. Gopinathan, N. Komathi, M.N. Arumugham. Inorg. Chim. Acta, 416, 93 (2014).
- [4]. A. Ouasri, A. Rhandour, M. Saadi, L. El Ammari, Acta Crystallogr Sect E Struct Rep Online, 70 (2014) 92-93.
- [5]. P.W. Betteridge, J.R. Carruthers, R.I. Cooper, K. Prout, D.J. Watkin, Jappl Crystallogr, 36 (2003) 1487-1487.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

## BIS(2-METHYL-4-NITROANILINIUM) HEXACHLORO-TIN(IV) MONOHYDRATE. HIRSHFELD SURFACE ANALYSIS

Samandarov E. Sh<sup>1</sup>.,

Yakubov.Y. Y<sup>2</sup>.,

C. Balakrishnan<sup>3</sup>.

<sup>1</sup>Khorezm Mamun branch of Uzbekistan Academy of Sciences, Markaz-1, Khiva 220900, Uzbekistan. <sup>2</sup>Institute of General and Inorganic Chemistry of Uzbekistan Academy of Sciences, 100170, Mirzo Ulug'bek str., 77a.

<sup>3</sup>Department of Chemistry, Erode Sengunthar Engineering College, Erode 638057, Tamil Nadu, India

### **Analysis of Hirshfeld surfaces of discrete nonlinear optical (NLO) materials.**

Molecular crystalline structures can be quantitatively analyzed through the Hirshfeld surface technique. This methodology illuminates the shifts happening at every point on the Hirshfeld surface, pertaining to neighboring atoms situated on both the external and internal surfaces. These distinct attributes have been pivotal in scrutinizing the selectivity and specificity of intermolecular forces acting upon molecular arrangements.

The creation of these surfaces involves partitioning the space enclosed by the crystal using the Hirshfeld ratio, where the procrystal is effectively delineated by employing a promolecule characterized by an electron density of 0.5. The normalized contact distance, referred to as  $d_{norm}$ , is calculated by considering perspectives from both the exterior and interior of the surface, as outlined below:

$$d_{norm} = \frac{d_i - r_i^{vdW}}{r_i^{vdW}} + \frac{d_e - r_e^{vdW}}{r_e^{vdW}}$$

The Hirshfeld surface analysis elucidates the intricate relationships between the external and internal components of a crystalline structure. The parameter denoted as  $d_{norm}$  represents the normalized contact distance, where  $d_e$  signifies the distance from the Hirshfeld surface to the nearest external nucleus,  $d_i$  denotes the corresponding distance to the nearest internal nucleus, and  $r^{vdW}$  designates the van der Waals radius of the atom in question.



## International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025

The  $d_{norm}$  parameter is visually depicted on the Hirshfeld surface through a color gradient ranging from red to white to blue. The bright red regions indicate intermolecular contacts occurring within a distance shorter than the respective van der Waals radii, while the blue regions signify intermolecular contacts at distances greater than the van der Waals radii. The white regions correspond to the cumulative van der Waals radii for the associated atoms. To analyze the short-range contacts between neighboring molecules in crystal lattice structures, the researchers utilized CrystalExplorer version 17. This software was employed to examine the Hirshfeld surfaces of the crystal structures and generate the corresponding two-dimensional (2D) fingerprint plots.

**The analysis of Hirshfeld surfaces is an important tool for understanding the intermolecular interactions and crystal packing in nonlinear optical (NLO) materials. Here are some key insights from the search results.**

1. The Hirshfeld surface analysis can provide valuable information about the nature and strength of intermolecular interactions that stabilize the crystal structure of NLO materials [1][2]. This includes hydrogen bonding,  $\pi$ - $\pi$  stacking, and other noncovalent interactions.
2. The Hirshfeld surface analysis can reveal the contribution of different types of intermolecular contacts (e.g., C-H $\cdots$ Cl; C-H $\cdots$ O; C-H $\cdots$ Br) to the overall crystal packing [1]. This information is crucial for understanding the structure-property relationships in NLO crystals.
3. The Hirshfeld surface analysis can also be used to visualize the molecular shape and surface properties of NLO chromophores, which can provide insights into their nonlinear optical response [2][3]. The shape and charge distribution of the molecules can influence their second-order and third-order nonlinear optical susceptibilities.
4. In addition to Hirshfeld surface analysis, other computational techniques such as density functional theory (DFT) calculations can be employed to further investigate the electronic structure, molecular orbitals, and nonlinear optical properties of NLO materials [2][3]. These complementary analyses can help in the rational design of new NLO materials with improved performance.
5. The search results highlight several examples of NLO crystals, such as stilbazolium derivatives, Schiff base complexes, and organic-inorganic hybrid



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025


materials, where Hirshfeld surface analysis has been used to understand the structure-property relationships [1-3].

## Hirschfeld analysis.

Hirshfeld surface analysis was performed on a (NLO) compound using its CIF file. The asymmetric part of the structure was selected for the surface analysis.

During the analysis, the Hirshfeld surface was obtained from the normalized contact distance and its  $\mathbf{d}_i$  and  $\mathbf{d}_e$  indicators.

Quantitative analysis of the Hirshfeld surface area ( $\mathbf{d}_{\text{norm}}$ ) revealed that the total volume is 292.86 Å<sup>3</sup> and the surface area is 294.76 Å<sup>2</sup>. Generally, larger volume and surface area indicate more extensive intermolecular bonding and interactions within the crystal structure (Fig-1).



**Fig-1.** Hirshfeld surface of dnroma nonlinear optical (NLO) materials,  
interactions inside and outside the surface.

The 2D fingerprints of the Hirshfeld surface of the coordination polymer compound are shown in Fig-5. Analysis of these fingerprint patterns revealed seven different homo- and heteroatomic contact interactions within and between molecules that contribute to the overall crystal packing.

The most prominent intermolecular interactions are H-O/O-H contacts, which account for 55.1% of the Hirshfeld surface. This indicates the important role of hydrogen bonding in stabilizing the crystal structure.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**


Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025

The second largest contribution is H---H contacts, accounting for 11.9% of the surface area. These close hydrogen-hydrogen interactions also play an important role in intermolecular packing.

Other significant contributions include C---C contacts (1.5%). These reflect the various van der Waals and dipole-dipole interactions present in the crystal.

In slightly smaller proportions, there are All contacts (100%), All---H/H---All contacts (56.9%), O---H/H---O contacts (8.5%), Cl---O/O---Cl (2.6%) and C---H/H---C (2%) and N---O/O---N (0.5%) contacts, all of which also contribute to the Hirshfeld surface. This indicates a variety of intermolecular interactions that stabilize the crystal structure.



**Fig-2.** Fingerprint representation of a nonlinear optical (NLO) materials Hirshfeld surface, contribution of interatomic interactions to surface formation

Hydrogen contributes 51.3% to the inner part of the surface and 55.2% to the outer part. Oxygen contributes 36.3% to the inner part and 32.5% to the outer part. Carbon and the tin metal each contribute 0.5% and 0.8% respectively, with the same percentages for both the inner and outer parts of the surface.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**

**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

This indicates that the contributions of the various elements to the Hirshfeld surface formation are comparable between the inner and outer parts of the molecular surface.

## REFERENCES.

- [1]. Jamroz, M. K.; Jamro'z, M. H.; Dobrowolski, J. Cz.; Glinski, J. A.; Davey, M. H.; Wawer, I. Spectrochim. Acta A 2011, 78, 107–112.
- [2]. Arpita Poddar, Debdutta Chakraborty, in Atomic Clusters with Unusual Structure, Bonding and Reactivity, 2023.
- [3]. R.C. Eckardt, in Encyclopedia of Modern Optics, 2020.
- [4]. R.W. Boyd, G.L. Fischer, in Encyclopedia of Materials: Science and Technology, 2022.



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

## **NEAR OPTICAL (NLO) MATERIALS: SYNTHESIS OF A NEW ORGANIC-INORGANIC HYBRID MATERIAL 4- (2-AMMONIOETHYL) MORPHOLIN-4-IUM HEXACHLOROSTANNATE (IV)**

P. K. Kodamboev<sup>1</sup>,

C. Balakrishnan<sup>2</sup>,

N. Vijayan<sup>3</sup>,

E. Sh. Samandarov<sup>1</sup>,

A. B. Ibragimov<sup>4</sup>.

<sup>1</sup>Khorezm Mamun branch of Uzbekistan Academy of Sciences, Markaz-1, Khiva  
220900, Uzbekistan

<sup>2</sup>Department of Chemistry, Erode Sengunthar Engineering College, Perundurai,  
Erode-638057, Tamil Nadu, India.

<sup>3</sup>Crystal Growth and X-Ray Analysis Section, CSIR-National Physical Laboratory,  
New Delhi-110012, India

<sup>4</sup>Institute of General and Inorganic chemistry of the Academy of Sciences of the  
Republic of Uzbekistan. Tashkent, 100170 Mirzo Ulugbek street 77A.

### **Synthesis:**

# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

Essay on the Shaking Palsy) nomli asarida bat afsil ta'riflangan. U ushbu kasallikning asosiy simptomlarini, jumladan, tinch holatdagi titroq (tremor), harakatlarning sekinlashuvi (bradikineziya), mushaklarning qotib qolishi (rigidity) va postural beqarorlikni aniq tasvirlab bergan. O'sha paytda kasallik "shaking palsy" deb atalgan, ammo keyinchalik, 1860-yillarda fransuz nevrologi Jan-Marten Sharko (Jean-Martin Charcot) Jeyms Parkinson sharafiga uni Parkinson kasalligideb nomlashni taklif qilgan.

Kasallikning sabablari va patofiziologiyasi bo'yicha ilmiy izlanishlar XX asrning o'rtalariga kelib jadal rivojlandi. 1960-yillarga kelib, Shvetsiyalik olim Arvid Karlsson miyada dopamin moddasining kamayishi Parkinson kasalligining asosiy sabablaridan biri ekanligini aniqladi. Bu kashfiyat kasallikni davolashda katta burilish yasadi va levodopa preparatining samaradorligini ohib berdi.

**Kasallikning rivojlanish omillari :** Parkinson kasalligi murakkab va ko'p omilli kasallik bo'lib, uning rivojlanishiga bir qator genetik va ekologik faktorlar ta'sir qiladi.

## Genetik omillar

PK holatlarining taxminan 10-15% genetik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Hozirgacha bir qancha genlar, jumladan, SNCA, LRRK2, PRKN, PINK1, DJ-1 va GBA genlaridagi mutatsiyalar aniqlangan. Ushbu genlar dopamin ishlab chiqaruvchi nevronlarning funksiyasiga va hayotchanligiga ta'sir qiladi. Ba'zi genetik mutatsiyalar kasallikning yoshroq yoshda boshlanishiga yoki oilaviy shakllariga olib kelishi mumkin.

## Ekologik va boshqa omillar

Genetik moyillikdan tashqari, bir qator ekologik omillar ham kasallik rivojlanishi xavfini oshirishi mumkin:

- Pestitsidlar va gerbitsidlarga ta'sir: Ba'zi tadqiqotlar qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy moddalar bilan doimiy aloqada bo'lish kasallik rivojlanishi xavfini oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.



## International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025

- Og'ir metallarga ta'sir: Marganets kabi og'ir metallarning yuqori darajadagi ta'siri ham xavf omili sifatida o'rganilmoqda.
- Bosh miya jarohatlari: Bosh miyaning takroriy yoki og'ir jarohatlari ham kasallikning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.
- Yosh: Parkinson kasalligining eng muhim xavf omili yosh hisoblanadi. Kasallik odatda 60 yoshdan oshgan odamlarda rivojlanadi, ammo yoshlarda ham uchrashi mumkin (yosh Parkinson kasalligi).
- Jins: Erkaklar ayollarga qaraganda PK bilan kasallanish ehtimoli ko'proq.

### Davolash uslublari

Parkinson kasalligini to'liq davolash hozircha mavjud emas, ammo simptomlarni boshqarish va bemorning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradigan samarali davolash usullari mavjud. Davolash yondashuvi har bir bemorning individual ehtiyojlariga va kasallikning bosqichiga qarab belgilanadi.

### Medikamentoz terapiya

- Levodopa: Bu PKni davolashda eng samarali dori vositasi hisoblanadi. Levodopa miyada dopaminga aylanadi va harakat simptomlarini sezilarli darajada kamaytiradi.
- Dopamin agonistlari: Bular miyada dopamin retseptorlarini qo'zg'atadi va dopaminning ta'sirini taqlid qiladi. Ular levodopadan ko'ra kamroq samarali bo'lishi mumkin, ammo uzoqroq muddat ta'sir qilishi mumkin.
- MAO-B ingibitorlari: Bu dorilar dopaminning parchalanishini sekinlashtiradi va miyada dopamin darajasini oshiradi.
- COMT ingibitorlari: Ushbu dorilar levodopaning miyada uzoqroq ishlashiga yordam beradi.
- Boshqa dorilar: Tremor, depressiya, uyqu buzilishlari kabi nordon harakat simptomlarini boshqarish uchun boshqa dorilar ham ishlatilishi mumkin.

### Jarrohlik davolash (miyani chuqr stimulyatsiya qilish - DBS)

Miyani chuqr stimulyatsiya qilish (Deep Brain Stimulation - DBS) ilg'or Parkinson kasalligiga chalingan va dori-darmonlarga yaxshi javob bermaydigan bemorlar uchun samarali variant bo'lishi mumkin. Bu protsedura miyaning ma'lum joylariga



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

elektrodlar joylashtirishni o'z ichiga oladi, ular esa impulslar yuborib, anormal miya faoliyatini tartibga soladi va simptomlarni kamaytiradi.

Qo'shimcha va yordamchi terapiyalar

- Fizioterapiya: Harakatni, muvozanatni va moslashuvchanlikni yaxshilashga yordam beradi.
- Nutq terapiyasi: Nutq va yutish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam beradi.
- Mehnat terapiyasi: Kundalik faoliyatda mustaqillikni saqlashga yordam beradi.
- To'g'ri ovqatlanish: Konstipatsiya kabi nojo'ya ta'sirlarni kamaytirish va umumiy salomatlikni saqlash uchun muhim.
- Psixologik yordam: Depressiya va xavotirni boshqarishga yordam beradi.

Parkinson kasalligini davolashda doimiy taddiqotlar olib borilmoqda, va kelajakda yanada samarali davolash usullari, shu jumladan, neyroprotektiv terapiyalar va kasallikning rivojlanishini sekinlashtiruvchi usullar topilishi kutilmoqda.

## Xulosa

**Parkinson kasalligi** murakkab va progressiv nevrodegenerativ kasallik bo'lib, uning sabablari to'liq aniqlanmagan bo'lsa-da, genetik moyillik va ekologik omillarning o'zaro ta'siri kasallikning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda **Parkinson kasalligini** to'liq davolash mavjud emas, ammo **levodopa** kabi medikamentoz terapiyalar va **miyani chuqur stimulyatsiya qilish** (DBS) kabi jarrohlik usullari bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi. Kasallikni boshqarishda multidisiplinar yondashuv, jumladan, fizioterapiya, nutq terapiyasi va psixologik yordamning ahamiyati katta. Ushbu sohada olib borilayotgan doimiy ilmiy izlanishlar kelajakda kasallikning rivojlanishini to'xtatadigan yoki sekinlashtiradigan yangi va samaraliroq davolash usullarini yaratishga umid uyg'otadi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**

**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Parkinson, J. (1817). An Essay on the Shaking Palsy. Sherwood, Neely, and Jones.
2. Charcot, J.-M. (1872). Leçons sur les maladies du système nerveux faites à la Salpêtrière. G. Masson.
3. Carlsson, A., Lindqvist, M., & Magnusson, T. (1957). 3,4-Dihydroxyphenylalanine and 5-hydroxytryptophan as precursors of the monoamine in brain. *Nature*, 180(4598), 1200.
4. Jankovic, J. (2008). Parkinson's disease: clinical features and diagnosis. *Journal of Neurology, Neurosurgery & Psychiatry*, 79(4), 368-376.
5. Lesage, S., & Brice, A. (2012). Parkinson's disease: from genetics to pathogenesis. *Science*, 337(6098), 1047-1051.
6. Deleu, D., Hanssens, Y., & Maurits, D. (2002). Levodopa-induced dyskinesias in Parkinson's disease. *Postgraduate Medical Journal*, 78(917), 183-191.
7. Benabid, A. L., Chabardes, S., Mitrofanis, K., & Pollak, P. (2009). Deep brain stimulation of the subthalamic nucleus for Parkinson's disease. *Lancet Neurology*, 8(1), 67-81.
8. Fox, S. H., Katzenbach, R., Lim, B. C., & Ravina, B. M. (2011). Nonmotor symptoms of Parkinson's disease: an evidence-based review. *Movement Disorders*, 26(Suppl 3), S148-S161.
9. Shulman, L. M., Sykora, K., & Simpson, P. A. (2010). Rehabilitation in Parkinson's disease. *Parkinsonism & Related Disorders*, 16(3), 143-146.
10. Tysnes, O.-B., & Storstein, T. (2017). Epidemiology of Parkinson's disease. *Journal of Neural Transmission*, 124(8), 901-905.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

## XALQ TABOBATIDAGI DORIVOR O'SIMLIKLARNING INSON SALOMATLIGIDAGI AHAMIYATI

Mahammadiyeva Sevara Xidirboyevna

Sanakulova Muxayyo Zarif qizi

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

### **Annotatsiya:**

ushbu maqolada dorivor o'simliklar va ularning xususuiyatlari, mamalakatimizda dorivor o'simliklar tarmog'i rivoji uchun olib borilayotgan ishlar xususidagi fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** dorivor o'simliklar, farmasevtika, mahalliy dorishunoslik, yalpix, sebarga, ziravor, urug'chilik, navlarni saqlash.

### **Аннотация:**

В этой статье даны мнения о лекарственных растениях и их свойствах, а также о работе, проводимой для развития сети лекарственных растений в нашей стране.

**Ключевые слова:** лекарственные растения, фармацевтика, отечественная медицина, мята, себарга, пряность, семеноводство, сохранение сортов.

### **Annotation:**

this article gives you ideas about medicinal plants and their properties, about the work carried out in our mamalakat for the development of the network of medicinal plants.

**Keywords:** medicinal plants, pharmacology, local medicine, mint, sebarga, spice, seeding, variety storage.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**

**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

Dori-darmonlarni tabiatdan o‘rganing,  
inson izlayotgan narsani u allaqachon yaratgan

Abu Ali ibn Sino

## KIRISH

Kasal bo‘lgan bemor dorixonaga yuguradi va tavsiya etilgan dorini olib ichishga harakat qiladi. O‘z vaqtida tabiat ne’matlariga murojaat qilishni unutib qo‘yamiz. Misol uchun, O‘zbekistonda o‘sadigan oddiygina na’matakning qanchalik ko‘p xususiyatlari borligidan hatto bexabarlar ham bor. Na’matak inson tanasini shamollahshdan xalos etadigan eng samarali dori vositasidir. Tabiiy dorivor o‘simliklarning ta’siri birdan bilinmasligi mumkin. Shifobaxsh o‘tlar inson organizmiga sekin-sekin yordam beradi. Dorivor, shifobaxsh o‘tlardan nafaqat kasal bo‘lganda, balki profilaktika sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Mavjud qonunchilikka ko‘ra, 2026 yilgacha mahalliy dori vositalarini ishlab chiqarishni 3 barobarga oshirish vazifasi belgilangan. Shuningdek, mahalliy mahsulotlar ichki bozorning 80 foizini egallashi ko‘zda tutilgan. Farmatsevtika sanoatida kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan maqsadli investitsiya loyihalari dasturi tasdiqlangan. Tegishli hujjatlar bilan dori vositalari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mahalliy korxonalarining GMP sertifikatini olish bilan bog‘liq xarajatlari Farmatsevtika agentligi tomonidan qoplab beriladi. Korxonalarni modernizatsiya qilishni moliyalashtirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi ishtirokida amalga oshiriladi. Dorivor o‘simliklarni yetishtirishda har 10 hektar plantatsiyalarga suv chiqarish uchun 600 ming so‘mdan subsidiya ajratiladi. Dorivor o‘simliklar plantatsiyalariga boshqa turdagи qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Dorivor o‘simliklarni urug‘chiligidan to qayta ishlashgacha bo‘lgan jarayonga mas’uliyatni kuchaytirish davr talabidir. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahalliy dori vositalari uchun xom ashyo asosan O‘zbekistonning o‘zida yetishtiriladi. Aynan O‘zbekistonda yetishtirilayotgan o‘simliklarning xususiyati boshqa davlatlarda yetishtirilayotgan o‘simliklardan ancha yuqoriligi o‘z isbotini topgan. Mahalliy florada 4 mingdan ortiq dorivor o‘simliklaring turi mavjud bo‘lib,



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

shundan 112 tasi ro‘yxatga olingan. O‘simliklaring 70 turi dorivor o‘simlik sifatida qayd etilib, qayta yetishtirilib, mahalliy dori vositasi sifatida foydalanilmoqda.

## ASOSIY QISM

Rayhon (bazilik) Rayhon yoqimli hid beruvchi o‘simlik bo‘lib, u talabchan emas va deyarli har bir uyda o‘sadi. Dunyo bo‘ylab bu o‘simlik bazilik sifatida tanilgan, ammo O‘zbekistonda bu rayhon deb nomlanadi. Rayhon tabiiy antibiotik bo‘lib, isitma tushirish va bakteriyalarga qarshi kurashuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Qadim zamonlardan beri turli patogenlar keltirib chiqaradigan shamollashni davolashda foydalanilgan. Ushbu o‘simlik tarkibidagi moddalar mushaklarning og‘rig‘ini kamaytiradi, yallig‘lanishni oldini oladi, balg‘amni bronxlar va o‘pkadan olib tashlaydi va yo‘tal va burunning oqishi bilan kurashadi. Bundan tashqari, rayhon parfyumeriya va efir moylarini ishlab chiqarishda faol qo‘llaniladi. Rayhonning bir nechta turlari mavjud va ularning har biri o‘ziga xos ta’mga ega: qizilmiya, limonli, chinnigulli, keng bargli.

Kashnich (koriander) Kashnich O‘zbekistonda oson va erkin o‘sadi. O‘simlik mukammal tozalash xususiyatlariga ega. O‘simlik tarkibidagi moddalar tanadan og‘ir metallarni olib chiqish va zararli ta’sirini zararsizlantirishga yordam beradi. Kashnich urug‘lari suvni tozalash uchun ham juda yaxshi qo‘llaniladi. Buning uchun qisqa vaqt ichida suv idishga urug‘lar solingan paketni tashlasangiz bo‘ldi.

Arpabodiyon mevalari juda foydali. Uning tarkibida saratonga qarshi vosita – anetol, S vitaminini, qondagi xolesterin kamaytiradigan oziq to‘qimalar kabi kuchli moddalar mavjud. Bundan tashqari, arpabodiyon stressni kamaytiradi, asab va ovqat hazm qilish tizimlarini tinchlantiradi va shamollash, stomatit va faringit bilan muvaffaqiyatli kurashadi. Arpabodiyon deyarli hech qanday qarshi ko‘rsatmalarga ega emas, shuning uchun u yosh bolalar va homilador ayollarga beriladigan ovqatga bemalol qo‘siladi.

Qadim zamonlardan beri turli patogenlar keltirib chiqaradigan shamollashni davolashda foydalanilgan. Ushbu o‘simlik tarkibidagi moddalar mushaklarning og‘rig‘ini kamaytiradi, yallig‘lanishni oldini oladi, balg‘amni bronxlar va o‘pkadan olib tashlaydi va yo‘tal va burunning oqishi bilan kurashadi. Bundan tashqari, rayhon parfyumeriya va efir moylarini ishlab chiqarishda faol qo‘llaniladi. Rayhonning bir



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

nechta turlari mavjud va ularning har biri o‘ziga xos ta’mga ega: qizilmiya, limonli, chinnigulli, keng bargli.2. Kashnich (koriander)Kashnich O‘zbekistonda oson va erkin o‘sadi. O‘simlik mukammal tozalash xususiyatlariga ega. O‘simlik tarkibidagi moddalar tanadan og‘ir metallarni olib chiqish va zararli ta’sirini zararsizlantirishga yordam beradi. Kashnich urug‘lari suvni tozalash uchun ham juda yaxshi qo‘llaniladi. Buning uchun qisqa vaqt ichida suv idishga urug‘lar solingan paketni tashlasangiz bo‘ldi.3. ArpabodiyonArpabodiyon mevalari juda foydali. Uning tarkibida saratonga qarshi vosita – anetol, S vitaminini, qondagi xolesterin kamaytiradigan oziq to‘qimalar kabi kuchli moddalar mavjud. Bundan tashqari, arpabodiyon stressni kamaytiradi, asab va ovqat hazm qilish tizimlarini tinchlantiradi va shamollash, stomatit va faringit bilan muvaffaqiyatli kurashadi. Arpabodiyon deyarli hech qanday qarshi ko‘rsatmalarga ega emas, shuning uchun u yosh bolalar va homilador ayollarga beriladigan ovqatga bemalol qo‘shiladi.4. YalpizYalpiz - bu efir moyining tarkibiy qismidir (mentol).

Yalpiz choyi oshqozon-ichak traktining buzilishlariga qarshi kurashda samarali vositadir. Yalpiz asab tizimini tinchlantiradi, og‘riqni yengillashtiradi va tanadan ortiqcha suvni olib tashlaydi.

Sebargani butun O‘zbekiston bo‘ylab topish mumkin, lekin eng muhimi – namligi juda yuqori bo‘lgan joylarda u ko‘proq bo‘ladi. O‘zbekiston hududida bir vaqtning o‘zida bir necha turdagи sebarga o‘sadi, ularning har biri an‘anaviy tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Qizil sebargadan damlamalar tayyorlanadi va taloq kasalliklarida qo‘llaniladi. O‘tloq sebargasi bronxit, yo‘tal, kamqonlik, bezgak, astma uchun ishlatiladi. Oq sebargadan tonik, og‘riq qoldiruvchi va kuch beruvchi dorivor sifatida ishlatiladi.

## XULOSA

Bizning yurtimiz dorivor o‘simliklarga boy. Mahalliy floraga mansub 4.3 mingdan ortiq o‘simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalinish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo‘llanib kelinmoqda. 2019 yilda 48 mln AQSh dollari qiymatidagi qayta ishlangan dorivor o‘simliklardan olingan mahsulotlar eksport qilingan. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 aprelda qabul qilingan



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

“Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori juda dolzarbdir.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan klaster tizimi o‘zining hozirgi globallashuv davrida va bozor iqtisodiyoti talablari asosida, har bir imkoniyatdan to‘liq va samarali foydalanib jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berish agrar sektorda, jumladan paxtani yetishtirishdan to uni kompleks qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida yengil sanoat mahsulotlari, oziq ovqat sanoati mahsulotlari (paxta yog‘i va undan tayyorlanadigan mahsulotlar) hamda chorvachilik uchun ozuqa (har xil yemlar, premikslar) ishlab chiqarish imkoniyatlarini keskin oshirib, agrar sohada yangi tizim klaster tizimi yaratilganini e’tirof etish kerak.. O‘simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot institutiga dorivor o‘simliklarni yetishtirish, seleksiya va urug‘chilik sohasida tadqiqotlar o‘tkazish va agrokimyoviy kartogrammalarni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish, himoya qilish va ulardan oqilona foydalanish ko‘p mutaxassislarni, jumladan botaniklar, farmakologlar, kimyogarlar, biokimyogarlar, texnologlar, manbashunoslar va boshqa mutaxassislarni hamkorlikda ishlashni talab qiladi. Mutaxassislarni so‘zlariga ko‘ra, o‘simlik dunyosini himoya qilish uchun uni har tomonlama – strukturaviy, funksional, taksonomik va evolyutsion bilish kerak. Dorivor o‘simliklarning genofondini saqlab qolish va ko‘paytirish usullaridan biri bu ularni madaniylashtirishdir. Introduksiya jarayoni (madaniylashtirish) juda murakkab, uzoq va ko‘plab omillarga bog‘liq, ya’ni: o‘simliklarning kelib chiqishi, ularning ekologik tabiat, tabiiy o‘sish joylarining iqlim va jug‘rofiy sharoiti va kirib borish maydoni va boshqalar. Tabiatda yovvoyi holda o‘sadigan shifobaxsh o‘simliklarni madaniylashtirish qimmatbaho yuqori mahsuldor turlari va navlarini olish maqsadida ko‘paytirishning keng qamrovini o‘z ichiga oladi.

O‘simliklarning tabiiy genofondini saqlab qolishning dolzarb vazifasi – bu ma'lum bir turning qaytarib bo‘lmaydigan darajada yo‘qolib ketishining oldini olish uchun gen banklarini yaratish, ya’ni ma'lum sharoitlarda yovvoyi o‘simliklarning urug‘lik zaxiralarini saqlashdan iboratdir. Bu ham qarorda ko‘rsatib o‘tilgan. Gen banklarini yaratish urug‘larni saqlashning barcha masalalarini puxta o‘rganishni nazarda tutadi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

Shifobaxsh o'simliklarning tabiiy zaxiralarini himoya qilish va ulardan oqilona foydalanishning o'simliklarni tabiiy o'sish joyidan qayta ishlash joyiga, ya'ni fitopreparatlarni tayyerlash joyiga o'tkazish bosqichidir. Avvalo, o'simliklarni to'g'ri yig'ish va quritishga taaluqlidir. Xom – ashyoni yig'ishda nafaqat turlarning tarqalishi, zaxiralari va mahsuldarligi, balki o'rim-yig'imdan keyin o'simliklarning tabiiy holatini tiklash qobiliyatini ham bilish kerak. Ushbu xususiyatlar to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi va eng muhimi, yig'im-terim ishlarining yomon tashkil etilishi, ko'pincha bir necha yillik ishdan so'ng, avvalgi dorivor o'simliklar o'sadigan xududlar sezilarli yoki to'liq qurib ketishiga olib keladi. Bu muammolarni tizimli hal qilish qarorda o'z aksini topgan.

O'simlik preparatining sifati va samaradorligi ko'p jihatdan uning tarkibiy qismlariga bog'liq bo'lganligi sababli qayta ishlovchi kompaniyalar o'simlik materiallariga eng yuqori talabni qo'yadi. O'simlik materiallarining doimiy sifati boshqariladigan va standartizatsiyalashtirilgan o'sib boradigan sharoit bilan ta'minlanadi. Atrof muhit sharoiti, organik moddalarning yuqori konsentratsiyasi va qisqa transport yo'llari katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari analitik hisob-kitoblar bilan tekshiriladi va murakkab tizimni anglatadi. Ilmiy ishlarda asosiy e'tibor nafas olish kasalliklari, ginekologiya, urologiya va og'riqlarga qaratilgan. Chet el kompaniyalarining dorivor o'simliklaridan olingan mahsulotlari Respublikamizga import qilinadi, qabul qilingan qaror bu preparatlarni o'zimizda o'sadigan dorivor o'simliklardan olish imkoniyatini yaratadi. Misol tariqasida Bolgariyaning "Tribestan" (temirtikan o'simligi), Germanianing "Gelarium giperikum" (dalachoy o'simligi), Chexiyaning "Persen" (arslon quyruq o'simligi asosida), Rossiyaning "Ekstrakt valeriany" (asorun ildizi va ildizpoyalari) katta miqdorda dori shaklida kirib keladi. Bu shifobaxsh o'simliklar o'zimizda ham o'sadi. Bularning ichidan faol moddalarni olish import hajmini kamaytirish imkonini beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkinlo'

## ADABIYOTLAR

- Агрономия (Под ред. Б. А. Ягодина). М осква, 1982.
- Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений СССР. М осква, 1976.
- AtaboyevaH .N . vaboshqalar. O'simlikshunoslik. Toshkent, 1995.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

4. Вопросы агротехники возделывания лекарственных культур. Часть 1, Москва, 1987.
5. Мурдахаев Ю. М. Лекарственные культуры в Узбекистане, Ташкент, 2001.
6. Murdaxayev Yu.M. O‘zbekistonda vatan topgan dorivor o‘simliklar. Toshkent, 1990.
7. Musayev B. S. « O‘g‘it qo‘llash tizimi», Toshkent, 1998.
8. Musayev B. S. Agrokimyo. Toshkent, 2001
9. Справочник по лекарственным културам. Воронеж, 1963.
10. ТТурова А.Д.Сапожникова Э. Н. Лекарственные растения СССР и их применение. М осква, 1982.
11. Xolmatov X.X. va boshqalar Ruscha-lotincha-o‘zbekcha dorivor o‘simliklar lug‘ati, Toshkent, 1992.
12. Xolmatov H.X., Ahmedov O. Farmakognoziya. - 1,2 qism. - Toshkent.: Fan, 2007.
13. Xolmatov X. X., Habibov. O‘zbekiston dorivor o ‘simliklari. Toshkent, 1971.
14. Ermatov A. Sug‘oriladigan dehqonchilik. Toshkent, 1983.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

## **BRONXIAL ASTMA KASALLIGI VA UNING SABABLARI**

Yoqubova Guldiyora Umedjon qizi

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi Texnikumi

### **Annotatsiya:**

ushbu maqolada astma kaslligi uning tarqalishi, sabablari, oqibat va natijalari, profilaktikasi, davolash usullari xususidagi fikrlar o’rin olgan.

**Kalit so’zlar:** astma, bronxial asthma, Hushtak chalish tovushi bilan nafas olish, ko’krak qafasidagi siqilish hissi.

### **Аннотация:**

В этой статье рассматриваются вопросы о заболеваемости астмой, ее распространенности, причинах, последствиях и последствиях, профилактике, методах лечения.

**Ключевые слова:** астма, бронхиальная астма, дыхание со свистом, ощущение стеснения в груди.

**Annotation:** this article covers the incidence of asthma in its distribution, causes, consequences and consequences, prevention, treatment methods.

**Keywords:** asthma, bronchial asthma, breathing with the sound of whistling, feeling of tightness in the chest.

### **KIRISH**

**Astma** (yunoncha asthma halloslash bugulib qolish) bronxlar teshigining tusatdan torayib qolishi (bronxial asthma) yoki ( yurak astmasi) tutadigan bugulish huruji.

Bronxial asthma (BA) xastaligi so‘nggi yillar mobaynida dunyoda eng keng tarqalgan xastaliklardan biri bo‘lib, u jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy muammoga aylanib bormoqda. Umumjahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (BO3) ma’lumotlariga asosan, qisqa davr ichida BAning katta yoshdagi kishilar o‘rtasida 5% gacha borib etishi,



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**

**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

kelgusida bu kasallikning yanada ko‘payishidan dalolat bermoqda. Buning ustiga atrof muhitning ifloslanib borishi, unda ayniqlas uchib yuruvchi sanoat chiqindilari — pollyutantlarning ko‘payishi, allergenlarning ortishi, atmosfera qobig‘ida azon kemptigining hosil bo‘lishi va insoniyat genofonining yomonlashuvi BAning yanada kengroq tarqalishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Bizning regionimizda ham allergik xastaliklarning, jumladan BAning so‘nggi 5 yil mobaynida 0,7% dan 17,5% gacha (Ubaydullaev A.M) ko‘payishi kuzatildi, bu esa BAning deyarli 20 marotaba oshganligidan dalolat beradi. O‘zbekiston bo‘yicha tarqalishi 4,6% ga to‘g‘ri kelib, er sharida tarqalishi bo‘yicha 19-o‘rinni egallaydi. Ubaydullaev A.M. ma’lumotiga qaraganda 1984 yil Toshkent shahar aholisining har 1000 kishisiga 3,6 ta BA bilan kasallangan bemorlar to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1998 yilga kelib 12,4 tani tashkil. Shuningdek BA qator mamlakatlar, jumladan AKSH, Buyuk Britaniya, Yangi Zenlandiya, Avstraliyada ham ko‘payganligi qayd etilgan. Rossiya davlati yirik sanoat shaharlari – Moskva va SankPeterburgda BA bilan kasallanganlar soni o‘rtacha 6,2% ni tashkil qiladi. Ushbu davlatda kasallik bilan og‘igan bemorlarning umumiy soni 7 millionga, nogironlar soni esa o‘rtacha 1 millionga to‘g‘ri keladi. Aslini olganda, BA bilan xastalanish va o‘lim ko‘rsatkichlari turli mamlakatlarda turlicha bo‘lib, ular to‘g‘risida esa aniq ma’lumotlar kam bo‘lsa hamki, kasallik va o‘lim ko‘rsatkichlari bu joylarda ham yuqori ekanligi shubha tug‘dirmaydi. SHunisi ajablanarli, ham achinarliki, tibbiyot sohasidagi yutuqlar samarasiga qaramay BAning ortib borishi dunyo mutaxassislari uchun global-ulkan muammoligicha qolmoqda.

## ASOSIY QISM

Qayd etilgan muammolar va raqamlar tagida inson hayoti sifatining kasallanish tufayli keskin yomonlashuvi va shu bois jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirokining buzilishi, va nihoyat, eng dahshatlisi, bevaqt o‘lim yotadi. SHuningdek BA tufayli go‘dak va yosh bolalarning hayotdan ko‘z yumishi hollarining ham ko‘payib borishi dunyo olimlarini bahamjihat kurashishi, yangi strategiya yo‘llarini ishlab chiqishi, yangi dori-darmonlarni kashf etishi va qo‘llashi lozimligini ko‘rsatayapti. SHu asosda BA bo‘yicha halqaro loyiha guruhi tashkil etilib (1998 y. AQSHda), unda turli mamlakat olimlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar. SHularning samarasiga o‘laroq,



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

BA xastaligi to‘g‘risida bilimlarimiz doirasi va imkoniyatlarimiz kengayib bormoqda. Bugungi kunda BA xastaligi nozologiya sifatida quyidagicha ya’ni BA - bu bronxlarning allergik persistenlanovchi yallig‘lanishi va giperreaktivligi asosida yuzaga keluvchi kasallik bo‘lib, u bronxlar obstruksiyalaruviga olib keluvchi bronxoqonstruksiya, shilliqning gipersekretsiyasi, bronxlar devori shishishi natijasida yuzaga keladi va xuruj shaklida kuzatiladigan nafas faoliyatining og‘irlashuvi yoki nafas qisishi bilan xarakterlanadi. Ushbu ta’rifning e’tiborga molik tarafi ilgarigi ta’riflardan farqli o‘laroq, BAni «surunkali persistirlanuvchi allergik yallig‘lanish va giperreaktivlik holati» deb qaralishi bo‘lib, bu esa patogenetik terapiyaning yo‘nalishini aniqlab beradi. Avvalgi adabiyotlar bo‘yicha odatiy bo‘lib qolgan BA ta’rifi quyidagicha edi: BA — mustaqil nozologik kasallik bo‘lib, u surunkali retsidivlanuvchi kechishi va asosiy va doimiy patogenetik mexanizmida bronxlarning spetsifik immunologik va nospetsifik (immunologik bo‘lmagan) mexanizmlar ta’sirida o‘zgargan reaktivligi bo‘lib, uning asosiy (doimiy) klinik belgisi bo‘lib bronxlar spazmi, shilliq gipersekretsiyasi, diskriniya va bronxlar shilliq qavati shishishi natijasida nafas qisilishi yoki astmatik status kuzatilishidir. Ko‘rinib turganidek, so‘nggi ta’rifda BAga persistirlanuvchi allergik yallig‘lanish va giperreaktivlik holati deb, yallig‘lanish mexanizmini konkretlashtirib berilishi, o‘zgargan reaktivlik degan ibora o‘rniga konkret — giperreaktivlik, va ayniqla, buni persistirlanuvchi yallig‘lanish ekanligini qayd etilishi progressiv yo‘nalishdir.

BA - nafas yo‘llarining surunkali yallig‘lanishidir. Moyillik bo‘lganda bu yallig‘lanish natijasida xurujli yo‘talish takrorlanib turadi, xirillashlar paydo bo‘ladi, ko‘krakda siqilish va nafasning qiyinlashishi tarzida bo‘ladi. YAllig‘lanish natijasida respirator traktning allergenlar, kimyoviy ta’sirotlar, tamaki tutuni, covyqhavoga yoki jismoniy zo‘riqishlarga ta’sirchanligi keskin oshadi. Ular ta’sir qilganda nafas yo‘llari shishib, spazm yuzaga keladi, ko‘p miqdorda shilliq ishlab chiqilib, nafas yo‘llarining tashqi ta’sirlarga giperreaktivligi ortadi. Natijada yuzaga keladigan bronxial obstruksiya spontan holda yoki dorilar yordamida o‘tishi mumkin. Afsuski ba’zi hollarda to‘liq ketmasligi ham mumkin.

BAga asosan nafas yo‘llaridagi yallig‘lanish deb yangicha yondoshish atopik BAning mohiyatini ochib bera olmaydi. Tyg‘ma veta-retseptorlarining funksional etishmasligi amalda veta-stimulyatorlarining har doim ham ijobjiy samara bermasligi



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

bilan, hamda vetaretseptorlarining tug‘ma nuqsonlilagini isbotlay olinmagani sababli ham atopik BAning ustivor sababi deb tan olinishiga to‘sqinlik qiladi. Muammoning ikkinchi tarafi esa, BA kasalligi bilan surunkali bronxitning bir xastalikning 2 turdag'i klinik ko‘rinishidek manzarani yoki tasavvurni yuzaga keltiradi. SHunday kilib, BAning yangicha ifodalanishi progressiv bo‘libgina qolmay, munozarali hamdir.

## XULOSA

TARQALISHI- dunyo aholisining 100 milliondan ziyodrog‘i BA xastaligiga mubtalo bo‘lgan va buning natijasida davolashga sarflanadigan mablag‘lar, shuningdek mehnatga layoqatligini yo‘qotish va oilaviy muammolar keskin ortib bormoqda. BA bolalar orasida ko‘payib ketmoqda, ayniqsa urbanizatsiya yuqori bo‘lgan xududlarda. Bu esa yashash joyining yaxshi ventilyasiya qilinmasligi, turar joydagi allergenlar (yumshoq jihozlar — gilam, mebel, o‘rin-ko‘rpada bo‘ladigan uy kanasi, uy hayvonlari, ayniqsa mushuk juni), tamaki tutuni, viruslar, aeropollyutantlar va kimyoviy ta’sirotlar, dorilar va oziq-ovqatlarning allergenlik xususiyatiga bog‘liqdir. Irsiy faktorning roli to‘g‘risidagi muammo esa hanuzgacha aniq o‘z echimiga ega bo‘lmay qolmoqda. BA aksariyat holda oilaviy xarakterga ega. U har qanday yoshda kuzatilishi mumkin. U yuqmaydi. BA — tibbiyot muammosi, bemor o‘z kasalligidan uyalmasligi lozim. Ko‘p olimpiada championlari, davlat arboblari va mashhur siymolarda BA xastaligi borligi sir emas. BA bilan xastalangan bemor to‘laqonli, mahsuldor hayot kechirishi mumkin. UASH TAKTIKASI Vazifalar:

- Bronx obstruktiv sindromi bilan kechuvchi eng ko‘p uchraydigan kasalliliklar ro‘yxatini aniqlash
- Bronx obstruktiv sindrom bilan kechuvchi kasalliklarni tasnifi
- Bronx obstruktiv sindromi bilan kechuvchi kasalliklarni davolash (O‘SOK, ASTMA). UAVning QVP yoki OP sharoitida eng ko‘p uchraydigan bronxoobstruktiv sindromi bilan kechuvchi kasalliklarga chalingan bemorlarni olib borish tamoyillari hamda dispanser kuzatuv strategiyasi aniqlash;



## International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025

BOS- bronxlar o‘tkazuvchanligining buzilishi natijasida sodir bo‘ladigan qator klinik simptomakompleks, jarayon asosida bronxlarining torayishi, okklyuziyasi yoki boshqa sabablar.

Astma kasalligini davolash dasturi:

Ushbu usullar bemor organizmining kompensator imkoniyatlarini kuchaytiradi va asoratlar kelib chiqishini kamaytiradi.

Ularga eliminatsiyali davo, postural drenaj, nafas mashqlari bilan davolash, fitoterapiya va ulardan birgalikda foydalanish usullari. Ammo fitoterapiyani o‘simlik changlariga allergiyasi bor bemorlarda ishlatish man etilishini esdan chiqarmaslik lozim. Xayot tarzini o‘zgartirish, kasbni (zarur bo‘lganda) o‘zgartirish, dozali jismoniy yuklama, tana vaznini kamaytirish, parxez(gipoallergik), chekishni tashlash.

### ASTMA PROFILAKTIKASI

- Dispanserizatsiya tamoyillari
- Bronxial astma kasalligini nazorat qilishda 6 yo‘nalish dasturi (« Astma kasalligini diagnostikasi va davolashni muammolari» umumjaxon konsensusi dokladidan 1992 yil, AKSH)
  1. Davolash jarayonida bemor va shifokorni o‘zaro o‘rtoklik munosabati (astma mакtablarida), marifiy ishlarni olib borish ;
  2. Nafas azolari kasalligini (BA) nazorat ilishda funksional tekshirish yo‘li bilan bemorni axvoliga obektiv baxo berish;
  3. Kasallikni sabab(larini)ini xisobga olib borish va uni avj olishidan bemorni ogoxlatirish, Ambulator terapiya;
  4. Dori vostitalarini rejalashtirish va ularni tartibga solib buyurish;
  5. Kasallik avj olgan taqdirda uni zudlik bilan davolash rejasini ishlab chiqish;
  6. Davoni ketma – ketligini( bosqichma-bosqich) va doimiyligini nazorat qilish.

### ADABIYOTLAR

- 1.Terapiya, Rukovodstvo dlya vrachey, studentov. Perevod s ang., prof.A.G.CHuchalin, Moskva.
- 2.Spravochnik vracha obЩaya praktika»ey praktiki. Dj. Merta, M.,1998.
- 3.Semeynaya meditsina (rukovodstvo) pod red. akad.A.F.Krasnova, Samara.2009



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

4. Vnutrennie bolezni, pod red. G.R.Xarisona, rukovodstvo. 2007
5. Diagnostika bolezney vnutrenix organov, rukovodstvo. A.N. Okorokov.
6. Charlton I, Charlton G, Broomfield J, Mullee MA. Evaluation of peak flow and symptoms only self management plans for control of asthma in general practice. BMJ 2009;301(6765):1355\_9.
7. Cote J, Cartier A, Robichaud P, Boutin H, Malo JL, Rouleau M, et al. Influence on asthma morbidity of asthma education programs based on self\_management plans following treatment optimization. Am J Respir Crit Care Med 2007;155(5):1509\_14.
8. Vnutrennie bolezni, Kniga 1 (T. R. Garrison- Moskva “Meditina” 1993g.) Glava 26. Str. 341- 346



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

## **BEPUSHTLIKNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING DAVOLARI**

Mavlanova Nargiza Olimovna

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi Texnikumi

### **Annotatsiya:**

Bepushtlik o‘ziga xos tibbiy holat bo‘lib, uning bevosita jismoniy oqibatlari kam bo‘lsa-da, psixologik jihatdan juda og‘ir kechishi mumkin. ushbu maqolada bepushtlik sindromining ayol va erkak organizmidagi sabbalari hamda ayollar bepushtligi sabab, oqibat va davo usullari xususidagi fikrlar o’rin olgan.

**Kalit so’zlar:** bepushtlik, bepushtlikning endokrin turi, tuxumdon, sabablar, endometrioz, mioma.

**Аннотация:** бесплодие-это уникальное заболевание, которое, хотя и имеет мало прямых физических последствий, может быть очень тяжелым с психологической точки зрения. в этой статье рассматриваются причины синдрома бесплодия в женском и мужском организме, а также причины, последствия и методы лечения женского бесплодия.

**Ключевые слова:** бесплодие, эндокринный тип бесплодия, яичники, причины, эндометриоз, миома.

**Annotation:** infertility is a specific medical condition that, although it has few direct physical consequences, can be psychologically very severe. this article covers the Sabbas of infertility syndrome in the female and male body and opinions on the Causes, Consequences and methods of treatment of female infertility.

**Keywords:** infertility, endocrine type of infertility, ovary, causes, endometriosis, fibroids.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

## KIRISH

Bepushtlik - tug'maslik tugdira olmaslik voyaga yetgan organizmning nayel (avlod) qoldirishga ojizligi . Odamda bir maromda (normal) jinsiy hayot kechirib, buyida bulishdan saqlanish vositalari (kontrasepsiyadan) foydalanmay kamida 1 yil birga turib farzand kurolmaslik bu bepushtlik hisoblanadi.

Bepushtlik – bu bir yil davomida homilador bo'la olmaslikdir. Bu muammo erkak va ayollarda birdekk uchraydi.

Bepushtlikning sababları: Bepushtlikning ko'plab sababları bo'lishi mumkin, jumladan:

JSST (1986) ta'rifiga ko'ra, tug'ish yoshida bo'lgan er-xotin bir yil davomida urug'lanishga qarshi vositalarsiz muntazam jinsiy hayot kechirganiga qaramay homiladorlik kuzatilmasa, nikoh bepusht hisoblanadi. Bepusht nikoh birlamchi va ikkilamchi bo'iadi. Agar homiladorlik umuman kuzatilmasa - bepushtlik birlamchi, agar homiladorlik kuzatilib, so'ngra bepushtlik yuzaga kelsa bepushtlik ikkilamchi hisoblanadi. Etiologik omillari bo'yicha bepushtlikni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- bepushtlikning endokrin turi;
- nishon a'zolari jarohatlanishi bilan bog'liq bepushtlik;
- bepushtlikni immunologik turi;
- erkaklar bepushtligi;
- bepushtlikni endokrin turi;

Ayollarda bepushtlikni endokrin turlariga ovulyatsiyaning buzulishini kiritish qabul qilingan.

Ovulyatsiyaning zamonaviy nazariyasiga binoan S.S. Jen (1986) tomonidan bepushtlik endokrin turining so'nggi tasnifi yaratilgan.

Reproduktiv sistemaning anatomik nuqsonlari (bachadon va qinning rivojlanish nuqsonlari, sinexiyalar).

Tuxumdon yetishmovchiligi (diskineziya, agneziya).

Surunkali anovuiyatsiya sindromi

- A) Gipotalamik turi;
- B) Gipofizar turi;



## International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> May, 2025

V) Qayta bog'liqlik qonunini buzilishi (kontratseptivlar qo'llanilishi, giperandrageniya, steroid gormonlar ishlab chiqaruvchi o'smalar, autoimmun kasalliklar).

Reproduktiv sistemaning anatomik nuqsonlari embriogenet davridagi nuqsonlaridan kelib chiqqan. Bachadon va qin anatomik o'zgarishiarining orttirilgan turlariga erta, plastik jarrohlik muoajalari oqibatidagi chandiqlar kiradi. Mavjud chandiqlami laparoskopik nazorat ostida gisteroskopik kesish, keyinchalik BIV kirgizish tavsiya qilingan.

### ASOSIY QISM

Amenoreyaning tuxumdon turlari birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda esa tuxumdon po'stloq qavatida follikulyar apparat yo'qligidan kelib chiqadi. Surunkali anovuiyatsiya patologik holatlarning geterogen guruhi bo'lib, gipctalama-gipofizar tuxumdon sistemasidagi siklik jarayonlarining buzilishi bilan xarakterlanadi. Klinik belgilari bachadondan disfunktional qon ketishlar, oligomenoreya, amenoreya, galaktoreya orqali yuzaga chiqadi. Bepushtlikning endokrin turlarini davolash qat'iy induvidual (yakka tartibda) o'tkaziladi.

Davolash: Tuxumdon yetishmovchiligi (lyutein faza etishmovchiligi, ovulyatsiyalanmaydigan follikulaning lyuteinizatsiya sindromi)da o'rinn bosar terapiyani qo'llash mumkin.

Menstruatsiyaga 10 kun qolganda, hayz siklining 2 fazasida progesteron qo'llash.

16-18-20 hayz xorionik gonadotropinni 1500-2000 Ed dan kiritish.

Kombinatsiyalashgan estrogen-gestagen preparatlarini samara olish maqsadida 2-3 kurs davomida qo'llash.

Ovulyatsiyani stimullash uchun klomifen 50 mg dan (100-150 mg sutkasiga hayz siklining 5 kunidan 9 kunigacha beriladi).

Giperprolaktenemiyada 4-6 hayz sikli davomida sutkasiga 2,5-7,5 mg bromkiptin yoki lod parallel berish tavsiya etiladi, Giperandrogeniyada deksametazon sutkasiga 0,25-0,5 mg beriladi. Surunkali anovulyatsiya sindromida ovulyatsiya bo'lmasligini quyidagi tekshirish usullari bilan aniqlash mumkin (3 yoki undan ko'proq hayz sikli davomida).



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

Bazal haroratni o'lchash.

Plazmada progesteron miqdorini aniqlash.

6-8 kun davomida bazal haroratni oshganida siydkda pregnandiol miqdorini aniqlash.

Endometriy so'rg'ichini gistologik tekshirish.

Laparoskopiyada «follikulaning usishi va yorilishi» ni aniqlash.

Ultratovush orqali fbllikulametriyani qo'llash.

Ovulyatsiyani tekshirishda yuqorida ko'rsatilgan barcha usullari qo'llashga zarurat yo'q.

## XULOSA

Bachadondagi organik o'zgarishlar tufayli yuzaga keladigan bepushtlikning sabablariga-ichki endometriozning boshlang'ich formalari, bachadon submukoz miomasi, endometriy giperplaziysi va poliplari, turli etiologiyali yallig'ianish jarayonlari kiradi. Bu o'zgarishlar meno-, metrorragiya, oligomenoreya va amenoreya shaklida klinik namoyon bo'ladi. Bachadon bo'yni va qinning orttirilgan nuqsonlari ko'pincha jinsiy a'zolarni yallig'ianish kasalliklari natijasida, jarrohlik muolajalari oqibatida kelib chiqadi. Bachadon bo'yni omili spermatozoidlarning tashilishida katta ahamiyatga ega. Bachadon bo'yni shillig'inining buzilishi sabablari:

Yallig'ianish o'zgarishlari;

Gormonal buzilishlar;

Spermatozoidiarga nisbatan antitanalar bo'lishi;

Bachadon bo'yni anatomik o'zgarishlari;

Bachadon bo'yni omilida davolash;

Yallig'lanishga qarshi davo;

Tuxumdonlar funktsiyasini yaxshilovchi davo.

Spermatozoitlarda antitanalar bo'lsa, bar'er (tusikli) davo 6-oy davomida prezervativlar qo'llash. Bachadon ichiga inseminatsiya qo'llash. Anatomik o'zgarishlar bo'lsa, plastik jarrohlik muolajalarini qo'llash. Nishon a'zolarining surunkali yallig'lanishi bilan bog'liq bepushtlikni davolash. Nishon a'zolarida surunkali yallig'lanish kasalliklarini aniqlash uchun provokatsiya metodi qo'llanib qin servikal qanal va uretra ajralmalari bakteriologik va serologik tekshiriladi. 50%



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> May, 2025

xollarda infektsiya bachadon naylari va chanoq bo'shlig'ida bo'lishini hisobga olib, mikroflorani tekshirish maqsadida material laparoskopiya yoki orqa gumbaz punktsiyasi orqali olinadi (agar sharoit yoki ko'rsatma bo'lsa). Antibakterial preparatlar kasallik qo'zg'atuvchilarining ularga bo'lgan sezuvchanligidan kelib chiqqan holda tavsiya qilinadi.

Surunkali yallig'lanish kasalliklarini davolashda ko'pincha amaliyotda G.M. Saveleva (1987) taklif qilingan sxemadan foydalaniladi. Antibakterial preparatlar: Yarim sintetik penitsillinlar Tsefolosporinlar (tsevaliksin, TEVA siproden) Tetratsiklin guruhi Aminoglikozidlar Levomitsitin guruhi Rifampitsin guruhi Metronidozol - TEVA, metrogil Tinidozol Nitrofuran hosillari Prostaglandin ingibitorlari Nistatin, fimgikeyr (kandidamikozga qarshi davo) Vitaminoterapiya Immunoterapiya Giposensibilizatsiya Immunoilogik bepushtlik. Bepushtlik sababi spontan ro'y beruvchi antisperma immunitet: erkaklarda ayrim sharoitlarda o'zining spermasiga nisbatan antitanalar bo'lishi, ayollarda erining spermasiga antitanalar bo'lishidir. Davosi: 6 oygacha prezervativ qo'llash, ayollarda glyukokartikoid terapiya spermani suyultirish uchun qo'llaniladi. Psixogen omillar Ko'pgina bepusht ayollarda psixoemotsionai holatida turli o'zgarishlar borligi aniqlanadi. Yolg'izlik, hayz oldi davridagi isterik xollar bunga misol bo'ladi. Bunday ayollar nevropatolog, psixonevrolog nazoratida bo'lishi kerak.

## ADABIYOTLAR

1. Т.Ю.Умарова. И.А.Каюмова, М. К. Ибрагимова «Хамширалик иши» Абу Али Ибн Сино, 2003.
2. «Соглигингиз Уз кўлингизда» Узбекистан Хамширалар ассоциацияси Хоразм вилоят булими. Доя, хамширалар ва хомиладор аёллар учун укув куанма. Урганч 2006.
3. Основы сестринского дела» Т. Побуковец., Т. А. Склерова., О. В. Чернова., Феникс 2004.
4. Практическая гинекология. Кулакова В. Н.
5. G.V. Tuychieva, Yu.K. Djabbarova, N.X. Raxmanova. Ginekologiyada hamshiralik ishi. O'quv qo'llanma. Toshkent.2011.